



*Dildora XIDIROVA,*  
*Qarshi davlat texnika universiteti dotsent, PhD*  
*E-mail: xidirovadildora1982@gmail.com*

*Dotsent, PhD D.Yavkochdiyeva taqrizi asosida*

### KASBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA EKSTREMAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Аннотация

Mamlakatimizda zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimining sifat darajasini ortishi, xalqaro standartlarga muvofiq ravishda malakali kadrlar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish, kasbiy ta'lim muassasalari bilan dunyodagi yetakchi kasbiy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni o'rnatishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy, zamonaviy, ta'lim, kadrlar, bilimlar, ekstremal, kompetentlik, o'quv, pedagog, jarayon.

### ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЭКСТРЕМАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация

В нашей стране особое внимание уделяется повышению уровня качества системы подготовки современных кадров, разработке необходимых условий для подготовки квалифицированных кадров в соответствии с международными стандартами, установлению сотрудничества между профессиональными образовательными учреждениями и ведущими профессиональными образовательными

**Ключевые слова:** Профессиональный, современный, образование, кадры, знания, экстремальный, компетентность, учебный, педагог, процесс.

### DIDACTIC CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF EXTREMAL COMPETENCE IN STUDENTS OF VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

In our country, special attention is paid to improving the quality of the modern personnel training system, developing the necessary conditions for training qualified personnel in accordance with international standards, and establishing cooperation between vocational educational

**Key words:** Professional, modern, education, personnel, knowledge, extreme, competence, educational, teacher, process.

**Kirish.** Mamlakatimizda zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimining sifat darajasini ortishi, xalqaro standartlarga muvofiq ravishda malakali kadrlar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish, kasbiy ta'lim muassasalari bilan dunyodagi yetakchi kasbiy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni o'rnatishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabrida qabul qilingan "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190 sonli Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabrida "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-sonli Qarori [2]. Shu asosda, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan ta'limga oid bir qator hujjatlarda ta'lim jarayoniga oid bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari, o'quv-metodik, mobil-didaktik materiallarni keng joriy etgan holda o'quvchilar hamda ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlar asosida rivojlantirish, kasbiy ta'limning o'quv mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullarini samarali qo'llash masalalari kasbiy ta'lim darajasini sifat jihatidan takomillashtirish hamda ta'limni tubdan rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab kelinmoqda. Shuni inobatga olgan holda, ilg'or xorijiy tajribalarga tayanganca zamonaviy kasbiy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, kompetentlikka asoslangan innovatsion ta'lim muhitini

shakllantira olish, kasbiy ta'lim o'quvchilarining ekstremal kompetensiyasini takomillashtirishga oid pedagogik mexanizmlarni yanada oshirish ehtiyojining yuzaga chiqishi uchun sabab hisoblanadi, buni amalga oshirish ma'lum pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'lim sifatini yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligini oshirish masalasining ta'limdagi samaradorlikga erishish masalasi uzoq yillardan beri ilmiy izlanuvchilarning diqqat-etiborini o'ziga jalb etib kelgan.

Kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekstremal kompetensiyani rivojlantirishga doir izlanishlarimiz davomida tadqiqot muammosini hal qilish va kasbiy ta'lim sifati hamda samaradorligini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilib, o'rganib chiqish taqozo etiladi. Shunga ko'ra, kasbiy ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, bilim, ko'nikma, malakalarini zamonaviy talablarga mos holda shakllantirish, muhandislik ta'lim yo'nalishlarining umumiy kompetensiyalari doirasida ekstremal kompetensiyani rivojlantirish, ta'limda innovatsion texnologiya va yangicha yondashuvlardan foydalanish muammolari bo'yicha mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

Xususan, akademik R.X.Djuraev ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni kasbiy jarayonga tayyorlashning nazariy, uslubiy jarayonlarini yoritgan.


O'quv jarayonini rejalashtirishda ta'lim maqsadini, mazmunini, ko'tilayotgan natijasini to'g'ri belgilay olish, ta'lim metodlari, shakllari, vositalarini to'g'ri tanlay bilish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, shu bilan birga, malakalarini baholay olishning aniq mezonlarini oldindan yarata olish, mashg'ulotga ajratilgan ma'lum vaqt doirasida ularni to'g'risini amalga oshirish hamda bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qarata olish maqsadga muvofiqligini e'tirof etgan [3].

Sh.E.Qurbonovning ilmiy-tadqiqot ishlarida shaxsning kasbiy qarashlarini oshirish masalalari, ta'limni insonparvarlashtirish tamoyilini amalga oshirish asoslari hamda ta'lim sifatini ta'minlay olish omillari ko'rsatib berilgan. Ta'limning maqsadi – bu muayyan ta'lim jarayonining oxirida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lib, hosil qilinishi kerak bo'lgan bilim, xatti-harakat va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni o'z vaqtida bajara olish qobiliyati, shaxsiy qarashlari, xulqini belgilashdan iborat. O'quv maqsadi, natijalarni belgilay olishda aniq o'lchanadigan, aniq amalga

oshiriladigan, erishish lozim bo'lgan imkoniyatlarning inobatga olinishi ta'kidlab o'tiladi [4].

N.A.Muslimovning tadqiqotlarida kasb ta'limi o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi ilmiy masala sifatida talqin etib, uning nazariy-metodologik asoslari bilan birgalikda tarkibiy tuzilmasi ham asoslab berilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, ta'lim texnologiyalarning xislati shundan iboratki, unga qo'yilgan maqsadga erisha olish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi. Shuningdek, mashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishini 80 foizi o'quv jarayoni to'g'ri rejalashtirilishi, o'quv jarayonini tashkil etish hamda uni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modellash-tirish, ushbu jarayonni boshqarish usullarini rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. O'quv jarayoni esa har bir o'quv mashg'ulotini rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. Rejalashtirish jarayoni o'qituvchining kundalik ishini tarkibiy qismlaridan biridir [5].




1-rasm. O'quv jarayonini rejalashtirish bosqichlari [5].

Z.K.Ismailova ilmiy tadqiqot ishlarida o'quvchilarning kasbiy pedagogik malakalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodlari o'rganilgan, har bir bo'lajak mutaxassis ta'lim tizimini isloh eta olishning zaruriylikni tushunib yetishi hamda uning amaliyotda ta'lim tashkilotlari innovatsion jarayonlariga qo'shila olishdagi ahamiyatini anglashi hamda ishlab chiqish imkoni mavjud bo'lgan innovatsion maydonda o'zini ko'rishi eng muhimi yangiliklarni o'zlashtira olishdan iborat ekanligi yoritilgan [6].

Q.T.Olimovning ilmiy-tadqiqotlarida maxsus fanlardan zamonaviy o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishning nazariy, amaliy asoslari, kasbiy ta'lim jarayonini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar keltirib o'tilgan. Shular asosida ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi

omillar bo'yicha mutaxassislarining turlicha qarashlari mavjud ekanligi, bilim oluvchilarning saviyasi, pedagoglarning bilimi va mahorati, ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, jarayon monitoringining to'g'ri tashkil etilishi, natijalarning tahlili va shu kabi ko'pgina omillarni aytish mumkinligi, mazkur omillar har bir kasbiy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasining o'quv va ilmiy jarayonlar bilan bog'liq qismlarida aks etishi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida bo'lishiga erishish, real mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashga yo'naltirilganligi, ilmiy faoliyat jarayoniga yosh avlodning ehtiyojini kuchaytira olishi, oliy malakali ilmiy pedagogik mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, kasbiy ta'limga yo'naltirish lozimligi asoslangan [7].



2-rasm. O'quv mashg'uloti maqsadiga ko'ra ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirish [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi vaqtda kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarida ekstremal kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi didaktik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, uning metodologik asosini tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etilmoqda. Tadqiqot jarayonida ekstremal kompetensiyaning mazmuni, uning tarkibiy komponentlari (bilim, amaliy ko'nikma, xavfni baholash, psixologik

tayyorgarlik, tezkor qaror qabul qilish) hamda bu kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik omillar nazariy jihatdan asoslab chiqildi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy bosqichda ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy pedagog olimlar tadqiqotlari, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv dasturlari va amaldagi metodikalar tahlil qilindi. Empirik bosqichda kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida so'rovnoma, test, kuzatish, suhbat,

ekspert baholash metodlari qo'llanildi. Pedagogik tajriba jarayoni tajriba va nazorat guruhlari orqali tashkil etilib, unda ekstremal vaziyatlarni modellashtirish, amaliy-simulyatsion mashg'ulotlar, case-study, muammoli vaziyatlar, "xavf-sabab-oqibat" tahlili kabi metodlar asosida didaktik shart-sharoitlarning samaradorligi sinovdan o'tkazildi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili shundan dalolat berdiki, kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarida ekstremal kompetensiyani rivojlantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammosiga qaratilgan bo'lib dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili tadqiqotimizning dolzarb mavzuga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

Kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekstremal kompetensiyani oshirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlab olish uchun "ekstremal kompetensiyani" tushunchasini ishlab chiqish, uning mohiyati hamda mazmunini aniqlash juda zarur omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, "ekstremal kompetensiya" tushunchasining mazmunini ochish, ekstremal kompetensiyasi tarkibini aniqlash, bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash doirasida o'rganilayotgan hodisaning xususiyatlarini oydinlashtirish vazifalarini, xususan, muhandislik ta'lim yo'nalishlarining umumiy kompetensiyalari doirasida ekstremal kompetensiyani ko'rib chiqish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Ekstremal kompetensiyaning mohiyatini aniqlash uchun uni boshqa tegishli tushunchalardan ajratib turadigan xususiyatlarini aniqlab olish taqozo qilinadi. "Ekstremal kompetensiya" umumiy tushuncha bo'lib, zarur ahamiyatga ega hisoblanadi. Ekstremal kompetensiyaning mohiyatini aniqlash uchun dastlab "Kompetentlilik" tushunchasini ko'rib chiqamiz: zamonaviy ta'riflarni shakllantirish uchun tarixiy asos sifatida 1960-1970 yillarda "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarining kiritilishi bilan bir qatorda ularni aniqlash va ajratish uchun zaruriyat yuzaga keladi [14].

Agar biz ilmiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini ta'lim sharoitida davom ettira olsak, kompetensiya o'quvchini tayyorlashning umumlashtira olingan talabidir, kompetensiya shaxsning xislati yoki xususiyati sifatida talqin etiladi, bu uning tajribasida aks etadi, ma'lum bir sohada gi faoliyat jarayoni bilan o'zaro uzviy bog'liqdir.

Tahlil natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, biz kompetensiya tushunchasini shaxsning ma'lum bir sohada (shu jumladan, professional) muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish qobiliyati va tayyorgarligini tavsiflovchi integral dinamik xislat xususiyati sifatida tushunamiz.

Jahon iqtisodiyotining muhandislik sohasidagi globallashuvi sharoitida sertifikatlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlarning xalqaro assotsiatsiyalari orqali muhandislarining kompetensiyalariga umumiy talablar ishlab chiqildi. Ularni quyidagi umumiy toifalarga ajratib chiqish mumkin [13]:

- fundamental, maxsus bilimlarning mavjudligi hamda foydalanish qobiliyati;

- tahlil etish hamda yechimlarni yaratish istagi;

- kasbiy hamda umuminsoniy axloq asoslarini bilish hamda uni qo'llash;

- iqtisodiy asoslarni o'zlashtirish hamda ularni muammoli masalalarini hal etishda samarali foydalanish;

- jamoada ishlash qobiliyati, yetakchi bo'lishga tayyorlik, samarali muloqot qilish;

- muammolarni hal qilishda ijodiy, tizimli yondashuvlar;

- innovatsion yondashuvni, rejalashtirish boshqaruvi asoslarini, tashkilot sifatini boshqarishni tushuna olish hamda amalga oshirishga tayyorlik.

Keltirilgan ro'yxatda allaqachon kompetensiyalarning tarkibida fundamental bilimlarni qo'llash, iqtisodiy savodxonlik, ijtimoiy yo'nalish mavjud [13].

Kasbiy ta'lim sohasidagi muammolarni hal qilishga va o'quvchilarga javob berish orqali bitiruvchilarning tayyorgarligi darajasini davlat nazorati uchun asos yaratishga qaratilgan asosiy kasbiy ta'lim dasturlari mazmuniga o'ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda, quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lish zaruriyati singdirildi:

- umumiy;

- kasbiy.

Ushbu tadqiqot uchun umumiy kasbiy kompetensiyalarni, jumladan, ekstremal kompetentlikni batafsilroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiq [11].

Tadqiqotda kompetensiya insonning ma'lum bir sohada (shu jumladan, professional) muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorligini aks ettiruvchi integral dinamik tavsifnomasi sifatida tushunilganligi uchun, ekstremal kompetensiyaning ahamiyati ortadi, sababi ushbu jarayon universal kompetensiyalarni anglatadi, ya'ni kasbiy faoliyat hamda shaxsiy rivojlanish uchun zaruriy hisoblanadi.

Ta'lim maqsadlari o'quvchilarning harakatlarida ifodalangan ta'lim natijalari belgilanishi masalalari atroflicha muhokama qilingan.

Tadqiqotlarimizda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini ishlab chiqish hamda foydalana olish texnologiyasi masalalari ko'tarilgan bo'lib, har bir o'quv mashg'ulotining mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi mavjud, ya'ni o'quv jarayonidagi ta'lim texnologiyasi—bu yakka tartibdagi jarayondir, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqib ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan rejalashtirilgan hamda kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayonligi aytilgan.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy psixologik-pedagogik adabiyotlar va meyoriy hujjatlarni tahlil qilish ilmiy bilimlarni tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq tizimlashtirishga imkon berdi, buning asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi:

"Ekstremal kompetensiya" tushunchasi bilimlari va ko'nikmalari va darsdan tashqari faoliyatidagi tajribasi va unga motivatsion-qiyamatli munosabatga yo'naltirilgan to'plamini aks ettiruvchi shaxsning integral dinamik xususiyati sifatida aniqlashtiriladi hamda kasbiy va shaxsiy sohalarida rajalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabrida qabul qilingan "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabrida "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-sonli Qarori.
3. Djurayev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskiye osnovi intensivatsii sistemi professionalnogo podgotovki v ucbebnix zavedeniyaх professionalnogo obrazovaniya. //Avtoref. diss dok. ped. nauk.— T.,1995.43s.
4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. — T.: Turon-Iqbol, 2006. 592 b.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy — metodik asoslari. // Dis. ped. fan. dokt. — T., 2007. 275 b

6. Ismailova Z.K. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental- metodik asoslari. // Diss. ped. fan. dok. – T., 2006. 345 b.
7. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari // Dis. ped.fan.dokt. – T., 2005. 286 b.
8. Xidirova Dildora Zayniddinovna. O‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion texnologiya va metodlar asosida loyihalashtirish // innovative development in educational activities .2024/4. 4-14.
9. Рахимов Зокир Тоштемирович, Хидирова Дилдора Зайниддиновна. Проблемы науки // педагогические технологии–фактор развития образования. 2020. 58-61. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskie-tehnologii-faktor-razvitiya-obrazovaniya>
10. Рахимов Зокир Тоштемирович, Хидирова Дилдора Зайниддиновна. Современное образование // педагогико-психологические аспекты психического состояния учителя в процессе обучения. 2019. 14-17. <https://naukaip.ru/wp-content/uploads/2019/04/%D0%9C%D0%9A-537.pdf#page=14>
11. Хидирова Д.З. Развитие проектной компетентности студентов в образовательном процессе // среднее профессиональное образование. 2021. 51-53. <https://elibrary.ru/item.asp?id=47314796>
12. Xidirova D., Muradov S. O ‘zbekiston respublikasi hududida seysmoaktiv hududlar va zilzilaning xavfliligi // Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – T. 3. – №. 2. – С. 167-172.
13. Rudskoy A.I., Borovkov A.I., Romanov P.I., Kolosova O.V. Obsheprofessionalniye kompetensii sovremennogo rossiyskogo injenera. // J.: Visheye obrazovani v Rossii, 2018. №2. С. 5-16.